

QORAQALPOQ AYOL-QIZLARINING MILLIY KIIYIMLARI

Ra’no Karamova

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“San’at nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola qoraqalpoq millati ayollarining milliy liboslari yaratilish tarixi, kiyish uslubi, milliy kiyimlarning tikilish qoidalari va ularning ma’nolari haqida ilmiy-tatqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpoq, libos, milliy, mato, ko‘k ko‘ylek, ipak, ayollar, muzey, to‘y marosimi, kiymeshek, jegde, taqiya.*

Har qanday xalq o‘zining milliy kiyimlari bilan ajralib turadi. Shu kiyimlarga qarab ularning qaysi milat vakili ekanligini bilish mumkin. Mana, shu ko‘z-qarashdan olsak, qoraqalpoq xalqi ham o‘zining butunlay o‘zgachalikka ega kiyimlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu qizkelinchaklarning kiyimlarida yaqqol ko‘rinadi. Qoraqalpoqlarning milliy kiyimlari qishqi va yozgi bo‘lib, mavsumlik kiyimlarga bo‘linadi. Bu kiyimlarni har kim o‘zining moddiy tomonlama ahvoliga qarab kiygan.



Qishki kiyimlar haqida so‘z borar ekan, kiyimning boshi “pashshayi ton” bo‘lgan (“pashshayi ishiq”deb ham aytilgan). U sirtqi pashshayi, ichki teridan ishlangan, bu ham qimmat kiyim bo‘lib hisoblanadi. Bunday kiyimlar tulki, qashqir, **shakal** terlaridan, ayrim joylarda yo‘lbars teridan tikiladi. Bunday kiyimlarda hech qanday naqsh bo‘lmaydi. Ichki terini etagida ham yangi tashqariga ensiz etib chiqarib tikadi. Shunga qaraganda hozirgi yoqa ham yengida terisi bor kiyimlarni qoraqalpoqlar 18 asrlardayoq modaga kirgizib kiygan ekan, degan xulosaga kelgan. Ton nimcha naqshli bo‘lib, uning chetiga kichkina teri bo‘lagi solinadi. Shunday qilib *sirilgan* paxtali *gupi* ham qish kiymiga kiradi. Bu astarlangan kiyim bo‘lib, ichiga paxta solinadi va maydalab sirib tigiladi. Buning 2 ta turi mavjud, yangi ham engsiz, deb bo‘linadi. Hech qanday naqshi bo‘lmaydi.

Bahor va kuz kiyimlari beshpent, kamzol, choponlar kiradi. Choponga yuqa paxta solinadi, maydalab siriladi, naqsh chizilmaydi, yengining o‘g‘zi tomoniga naqshli jenushlar solinadi. Beshpentning yangi uzun bo‘ladi, yoqasidan boshlab ikki cho‘zilgan, etagi, ikki yenginin uchi tomoni, xaltasining o‘g‘zi “uzbe naqsh” bilan bezalgan bo‘ladi. Bunday beshpentlar maqpaldan tigiladi. Kamzol deganimiz beshpentke o‘xshash bo‘lib, gohida uzun yangi, gohida yengsiz turi ham mavjud. Ushbu beshpentlarning naqshlari quramali emas, yengil ko‘rinishda bo‘ladi, ayrim paytlarda xaltasining o‘g‘ziga ham naqsh tushiriladi. Kamzol ham, beshpent ham astarlanadi, paxta solinmaydi.

Qiz-kelinchaklarning yoz kiyimlari

ko‘p atamadan iborat emas, sanoqligina kiyimlari mavjud bo‘lib, ko‘pincha bir-ikki ko‘ylak bilan cheklangan. Ko‘ylaklar, yoshlar uchun qizil **borlat**, **shatlenki**, **pashshayi** materiallardan tigilgan. Bichilishi qadimgi *jon bichish*, etak tomoniga shabiv solinib kengaytirilgan, yoqasi yengil naqshlangan, ayrim paytlarda dumaloq yoqa solib, **ilgek** taqib kiygan, buni nog‘ay yoqa dep atalgan.



Shatlenka material “shatraj ko‘ylak” degan. Yenglari har doim uzun etub tigilgan, kalta yeng ko‘ylak bo‘lmagan. Kichkina qizlar juda kalta yengsiz kiyib, uni ayrim joylarda “**kashmish**” yokida “**sholak**” deb aytilgan.

Kundalikli kiyimlar deganda yuqorida nomi keltirilgan kiyimlarni kiygan. Xalqning iqtisodiy ahvoliga bog‘liqli harkim topganini kiyib yashagan. Kiyimlar uzun etib tigilganligi tufayli ish kiyimi bo‘lsin, yoki kundalikli kiyim bo‘lsin, belini belbaw bilan bog‘lagan. Belbaw o‘rniga gohida bir *qos* ro‘mol (o‘ramal)dan ham foydalangan. Bu birinchidan, belini mahkam etib tursa, ikkinchidan, kiyimlar sal tortilib, *yig‘noqli* bo‘lib turgan. Qiz-kelinchaklar yozda ekin ishi, chorvachiligi bilan shug‘ullanib, qish *oylarida urshiq yirib*, har doim o‘z uylarida ishlagan.

Qoraqalpoq xotin-qizlarining to‘y maraca kiyimlari go‘zallikning timsoli desak adashmayiz. Sababi, bunday kiyimlar har bir qizning qol *tanbasini*, chevarligin, odob-ikromligin ko‘rsatadigan darajada chevarlik bilan ishlangan.

To‘y kiyimlari. Ko‘k ko‘ylak - to‘y kiyimlarining eng boshi bo‘lib, uni kiyishni orzu qilmagan qizning o‘zi bo‘lmagan. Bul ko‘ylakning naqshlari unga ham quramali va ulkan ma’noga ega hisoblanadi. Ko‘k rangining o‘zi osmon rangi bo‘lib, tirikchilikning negizi degan ma’noni anglatadi, oldi tomoniga solingan bo‘lsa har tarafga cho‘zilgan yirik daraxt siymosi onaning, umrning asoschisi ekanligini ko‘rsatadi. Shunday-oq, bu naqshlarning ikkinchi bir ma’nosi erta davrlarga borib taqaladi. Matriarxat davrida elin qoriqlagan ayollarimiz sawit kiyib, kamon otgan. Shu davrdan saqlanib qolgan belgisi sifatida ko‘k ko‘ylakning oldidagi tutash naqshni “*sawit naqsh*” deb ham ataydi. Sawit odam tanasiga oqni o‘tkazmasa, ko‘k ko‘ylaktagi naqshlarda



kelinchaklarning chiroyiga hasad bilan qaragan yomon nazarlardan saqlagan. Bu ko‘ylakni dengiz va daryo yoqalab yashagan qavmlarning qizlari ko‘pincha tikkan, bitta ko‘ylakni 6-8 yillab naqshlagan. Bitta ko‘k ko‘ylakni bitta uyda yashavchi opa-singillar biridan so‘ng biri kiyib uzatilgan, ayrim holatlarda bitta ovuldan ikkinchi ovulga berib, qizlarga kiygizgan. Ko‘k ko‘ylak bir avlodning hurmatli, o‘broyli, qadrli kiyimi hisoblanib, dastlab onasi,

so‘ngra uning qizi, undan keyin qiz nabiralari kiyib, avloddan-avlodga estalik sifatida saqlangan. Ko‘k ko‘ylaklarb xalqimiz orasida kam uchrab, muzeyda ularning 4 donasi bor. Moskva, Sank-Peterburgdagi muzeylarda ko‘k ko‘ylaklar bor degan ma‘lumotlar ham bor.

Shu ko‘ylakning keying to‘y kiyimi **qizil kiymeshek** bo‘lib, bunda quramali naqshlarga boy, sanoqli kiyimlar qatoriga kiradi. Kiymeshek uch bo‘lakdan: **kiymeshek oldi**, **kiymeshek quyriq**, yokida **pasidagi bo‘lagi**, **kiymeshek o‘rtasi**, yag‘niy pashshayidan iborat bo‘ladi. Naqshlari o‘simliklar dunyosidan, hayvonatlarning belgili bir muchallaridan olinib, har turli ranglardagi ipak saboqlar bilan kashtalanadi. Kiymeshekni ham qizlar uzoq yillar davomida kashtalab, o‘zlarining to‘ylarida kiygan. Qizlar kiymeshek tikishni juda erta 6, 7 yoshlarida boshlagan. Shuning uchun ham xalq orasida kiymeshekni “6 yoshdan boshlasang oshirasan, 7 yoshdan boshlasang yetkazasan” degan so‘zlar saqlanib qolgan.

Kiymeshek yosh kelinning sochlarin yomon nazardan saqlashda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan, sababi uni kiygan vaqtda kelinning faqatgina yuzi ochiq bo‘lib, sochi, ortga o‘rilgan buyumlari hammasi kiymeshekning ichida turgan. Sababi, katta yoshli ayollarga sochi orqali yomon nazar o‘tadi, degan qarashga ishonishgan, shuning bilan birga undagi naqshlar ham duo, yokida nazardan qutqaruvchi xizmatini bajargan. Kiymeshekning naqshlarini qizlar chevar yangalaridan o‘rgangan, keyin o‘z bilganicha tikib, naqshlar o‘ylab topib, bir-biridan chevarligini oshirib brogan. Muzey xaziynasidagi kiymesheklarning soni ko‘p bo‘lgani bilan ular bir-biri to‘liq takrorlamaydi, ularni tikkan qizlarning dunyoga qarashi, o‘y-fikrlari rangma-rang bo‘lib, ularni o‘rganish kelajak avlodga foydasi tegadi.

Ko‘k ko‘ylak, qizil kiymeshek keying belgili 5 ta kiyimning biri – **qizil jipek jegde** hisoblanadi. Jegdening ikki yengi uzun, ensiz etib tigilib orqasiga qo‘shib bo‘g‘lanadi. Jegde qizil chiziqli ipak matodan qadimgi jon bichish usuli bilan tikilib, etak qismiga tunlik qo‘yiladi. Yoqasi qizil, yokida qora tutqichidan solinib, g‘ayri naqshlar bilan kashtalangan. Yoqasidan boshlab etagi, shalg‘ayi, umumam jegde tolig‘i bilan ipak ip bilan yig‘ilinadi. Yoqaning ikki tomoniga *jarmish*(matoda) qo‘yilib, unga *po‘pekli* jegde bog‘ taqiladi. Shu bog‘dan (baw) ushlab, kelinchak yuzin sal yopib, nazarin paska qaratib, qari-yoshga hurmat ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq qiz-kelinchaklari paranja yopmay, faqatgina jegdening o‘ng tomonini yuziga tortib, yuzin yashiringan ham hech kimga tik nazar bilan qaramagan. Ipak (jipek) jegde egniga tortib kiyilmaydi, faqatgina boshga yopinadi. Shuning uchun uning yengi orqasiga tashlanib qo‘yiladi.

Qoraqalpoqning taniqli shoiri Abbaz otamiz o‘z she‘rlarida jegde yopingan yangalarni: Jegdesin qiya jamilip, Bawiri o‘ttaw qamilip, - deb tariflagan. Undan tashqari, qoraqalpoq dostonlarda jegdeler tariflanadi. Bir so‘z bilan aytganda qizil ipak jegde qoraqalpoq kelinchaklarining bosh kiyimlari, to‘y kiyimlarining biri bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida so‘z etilgan shu kiyimlarning boshqa to‘y kiyimlari qatoriga ham kiradi. **Aydinli**, **madeli**, **turme**, **o‘lgeymen**, **o‘raypek** singari bosh kiyimlarini qiz- kelinchaklar to‘ylarda, haytda, Navro‘z bayramlarida boshlariga o‘ragan va yopilgan. **Aydinli** deganimiz kichkina kvadrat ko‘rinishli gulli o‘ramal bo‘lib, u bir necha bo‘lakdan iborat, lekin oralari bo‘linmaydi. 4 qos, 5,6,7 qos aydinli deb ataladi. **Turme** uzunligi 4,5 metr, eni 45-50 sm, ipak matoda tikiladi, shashag‘I bo‘ladi, boshga o‘raganda 1 qavat aydinli, 1 qavat turme

aralashtirilib o‘raladi. **Madeli** deganimiz bo‘lsa nchalik uzun emas, rangli ipak bo‘lib, uni boshga ham o‘raydi, gohida belga bo‘g‘laydi¹².

O‘lgeymen¹³ bilan **o‘raypekni** bosh o‘rashning tashqarisidan yopinadi, ko‘rinishi ulkan, to‘rt burchakli, shashag‘i bor, iri-iri gullari bo‘ladi.

Qoraqalpoq qizlari kichkina vaqtlarida har uyning ahvoliga qarab kiyingan. Ko‘p qizlar uchun qoldan to‘qilgan bo‘z ko‘ylak avvalgi kiyimi bo‘lgan. Shu bo‘zni to‘yliq qizilga, yokida ochiq qizilga bo‘yab, kiyib yurgan. Bunday ko‘ylaklarda hech qanday naqsh bo‘lmagan. Uzun etib pichilgan bunday ko‘ylaklarning tashqarisidan kichkina nimcha (jen‘siz), yokida yengil kiygen, boshlariga bir tortim **sharshi (yopishqoq)**, yiki ro‘mol boylagan.

Ko‘pincha qizlar *po‘pekli taqiya, bo‘z taqiya, pashshayi taqiya* kiygan. O‘yin bolasi hisoblangan kichkina qizlarning kiyimlari juda oddiy bo‘lib, ular rivojlanib ko‘ylaklarining turi ko‘baygan. **Pashshayi ko‘ylak, aydinli ko‘ylak, atlasda rayyi ko‘ylak, shatrash ko‘ylak**, deb atalgan ko‘ylaklarni kiygan. Bu ko‘ylaklar ham quramali naqshlar bo‘lgan. Faqatgina yengiga yengil naqshlar solingan. Taqiyalariga bo‘lsa **muyiz** naqshlarni solib, po‘peklarini rangli iplardan ishlagan, uchlariga munchoqlar o‘tkazgan¹⁴.

Kelinchaklar yuqoriga so‘z etilgan to‘y kiyimlarini kiygan. Biroq, bunga hamma aholining iqtisodiy tomonlama qurbi yetmaganligi sababli ayrimlari **pashshayi ko‘ylek, yokida shatrash ko‘ylak** bilan-oq uzatilgan. Tashqarisidan **kamzol, bashpent, shapan** kiygan. Kelinchaklarning qizlardan ayirmachiligi faqatgina kiyimlarida emas, sochlari orqali ham ajralib turgan. Yosh qizlar ikki tomoniga **tulimshaq** o‘rib, uchlariga monshaq o‘tqazib yurgan. Turmishga chiqqandan so‘ng shu tulimshaqlar orqa tomonga qoshilib o‘rilib, boshiga ro‘mol tortgan, yokida **turme, aydinli** o‘ragan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. (SANIYAT) MILLI MIYRAS, №1-2. 2014.
2. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Madreymov Polat Shamshetovich bilan suhbatdan olingan ma’lumot.

¹² (SANIYAT) MILLI MIYRAS, №1-2. 2014

¹³ O‘lgeymen, o‘raypekni – qoraqalpoq bosh kiyimi.

¹⁴ O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Madreymov Polat Shamshetovich bilan suhbatdan olingan ma’lumot.